



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	

Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi.....	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli.....	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati.....	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari.....	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodik Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi.....	267
Moxira Niyozqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
<i>Vohidova Ibodat Hurmatullayevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	277
<i>Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich</i>	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
<i>Xusanova Dilraxon Botiraliyevna</i>	
Talabalarning jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
<i>Zuxriddin Nasibovich Boboshev</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich</i>	
Использование чат-ботов в образовательном процессе	294
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи</i>	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
<i>Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна</i>	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
<i>Садикова Дилафруз Хусановна</i>	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
<i>Санакулова Нигора</i>	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MILLIY-MA'NAVIY QADRYATLAR ASOSIDA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich

Andijon davlat universiteti Psixologiya va pedagogika kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Dadabayev Akramjon Askaraliyevich

Turon universiteti Andijon filiali 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlash jarayonining mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, milliy-ma'naviy tarbiyaning pedagogik ta'lim tizimidagi o'rni, o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi roli hamda zamonaviy ta'lim jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy va ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy qadriyatlarining ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: milliy-ma'naviy qadriyatlar, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik tayyorgarlik, ma'naviy tarbiya, kasbiy kompetensiya.

Abstract: This article examines the content and significance of the process of training future teachers based on national and spiritual values. It also analyzes the role of national and spiritual education within the system of pedagogical training, its importance in shaping the teacher's personality, and the specific features of utilizing national values in the modern educational process. The article provides a scientific and theoretical justification of the influence of national values on the development of professional and spiritual competencies of future educators.

Key words: national and spiritual values, future teacher, pedagogical training, spiritual education, professional competence.

Аннотация: В данной статье освещаются содержание и значение процесса подготовки будущих учителей на основе национально-духовных ценностей. Также анализируется роль национально-духовного воспитания в системе педагогического образования, его значение в формировании личности учителя, а также особенности использования национальных ценностей в современном образовательном процессе. В статье с научно-теоретической точки зрения обосновывается влияние национальных ценностей на развитие профессиональных и духовных компетенций будущих педагогов.

Ключевые слова: национально-духовные ценности, будущий учитель, педагогическая подготовка, духовное воспитание, профессиональная компетенция.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashdan iboratdir. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarini, balki ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ham shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi jamiyatda ma'naviy yetakchi, yoshlar uchun namuna bo'luvchi shaxs hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat kasbiy jihatdan yetuk, balki yuksak ma'naviyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxslar sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Sababi o'qituvchi jamiyatning ma'naviy tayanchi, yosh avlod ongiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi kuch hisoblanadi.

Milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan o'qituvchi shaxsi o'qituvchilarga bilim berish bilan birga, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, milliy g'urur va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiradi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida milliy-ma'naviy tarbiyani ustuvor yo'nalish sifatida belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim oldiga qo'yilgan eng muhim maqsad umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiya mazmunida insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, ta'lim jarayonini xalqchil ruhda tashkil etish hamda shu asosda yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlash masalasi pedagogika, ma'naviyat-shunoslik va ta'lim falsafasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo mustaqillik yillarida, ayniqsa milliy taraqqiyot strategiyalari bilan uyg'un holda, chuqur ilmiy tadqiq etila boshladi.

Milliy-ma'naviy qadriyatlar nazariyasiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur tushunchaning mohiyatini ochib berishda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Uning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" asarlarida milliy ong, ma'naviy barkamollik va yoshlar tarbiyasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni chuqur tahlil qilingan bo'lib, unda o'qituvchi shaxsiga jamiyatning ma'naviy tayanchi sifatida alohida e'tibor qaratiladi.

Pedagogika fanida milliy-ma'naviy tarbiya masalalari jadid ma'rifatchilarining merosida ham keng yoritilgan. Jumladan, A. Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov asarlarida o'qituvchi shaxsining axloqiy qiyofasi va ma'naviy mas'uliyati muhim ijtimoiy omil sifatida talqin etiladi. A. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Zamonaviy pedagog olimlardan J. Tulenov, R. Safarova, N. Muslimov, B. Xodjayev va M. Karimovlarning ilmiy ishlarida kasbiy-ma'naviy tayyorgarlik, o'qituvchining axloqiy madaniyati hamda milliy qadriyatlarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi masalalari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda milliy an'analar, urf-odatlar, tarixiy meros va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi alohida ta'kidlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ma'naviy-axloqiy yondashuvlarning ahamiyati V.A. Slashtyonin, N.V. Kuzmina, I. Zimnyaya kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Ularning ilmiy ishlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kasbiy qadriyatlar va pedagogik etikani shakllantirish muhim omil sifatida qaraladi. Milliy kontekstda esa ushbu yondashuvlarni o'zbek xalqining qadriyatlari, mentaliteti va tarbiyaviy an'analari bilan uyg'unlashtirish zarurligi ko'plab tadqiqotlarda qayd etiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlash pedagogik ta'limning muhim tarkibiy qismi, o'qituvchining kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy omillardan biri hamda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, adabiyotlarda mazkur masalaning nazariy asoslari yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, uni amaliyotga tatbiq etishning innovatsion metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish hanz dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlash jarayonining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, uning pedagogik xususiyatlarini ochib berish hamda amaliy samaradorligini oshirishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi falsafiy, umumilmiy va maxsus-pedagogik yondashuvlar, shuningdek, empirik hamda nazariy tadqiqot metodlari majmuasiga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosini:

- shaxs va jamiyat taraqqiyoti haqidagi dialektik ta'limot;
- ta'lim va tarbiyaning uzviyligi tamoyili;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi;
- O'zbekiston Respublikasining ta'lim va yoshlar siyosatiga oid qonunlari, farmonlari hamda konseptual hujjatlari;
- buyuk mutafakkirlar va zamonaviy pedagog olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etadi.

Shuningdek, tadqiqotda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik (qadriyatga yo'naltirilgan) yondashuv hamda madaniyatshunoslik yondashuvi metodologik tayanch sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi yondashuvlardan foydalanildi:

- aksiologik yondashuv – bo'lajak o'qituvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni kasbiy faoliyatning muhim omili sifatida shakllantirishga yo'naltirildi;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – talabalarni mustaqil fikrlovchi, ma'naviy barkamol va ijtimoiy faol shaxs sifatida rivojlantirishni nazarda tutadi;
- kompetensiyaviy yondashuv – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi;
- tizimli yondashuv – milliy-ma'naviy tayyorgarlikni pedagogik jarayonning uzviy, o'zaro bog'liq elementlari tizimi sifatida tahlil qilish imkonini berdi;



- faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – o'quv mashg'ulotlari, tarbiyaviy tadbirlar va amaliy faoliyat orqali qadriyatlarni egallashni ta'minladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi metodlardan foydalanildi.

1. Nazariy metodlar:

- ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va pedagogik manbalarni tahlil qilish;
- taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish;
- pedagogik tushunchalarni modellashtirish hamda konseptual yondashuvni ishlab chiqish.

2. Empirik metodlar:

- pedagogik kuzatish;
- so'rovnoma va anketa;
- suhbat (intervyu);
- test sinovlari;
- talabalarning yozma va ijodiy ishlarini tahlil qilish.

3. Eksperimental metodlar:

- pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish;
- tajriba va nazorat guruhlarini solishtirish;
- milliy-ma'naviy tayyorgarlik darajasini aniqlash mezonlari asosida baholash.

4. Statistik metodlar:

- olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish;
- foiz ko'rsatkichlari va diagrammalar orqali natijalarni aniqlashtirish.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- 1) tahliliy-tayyorgarlik bosqichi – muammo holati o'rganildi, mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilindi, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilandi;
- 2) amaliy-tajriba bosqichi – bo'lajak o'qituvchilar bilan tajriba-sinov ishlari olib borildi, innovatsion pedagogik usullar sinovdan o'tkazildi;
- 3) yakuniy-tahliliy bosqich – olingan natijalar tahlil qilindi, xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi metodlarning ilmiy asoslanganligi, tajriba-sinov ishlarining tizimli tashkil etilishi, empirik ma'lumotlarning statistik tahlili hamda nazariy va amaliy xulosalarning o'zaro mosligi bilan ta'minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda tadqiqot jarayonida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilinib, bo'lajak o'qituvchilarning milliy-ma'naviy qadriyatlar asosidagi tayyorgarlik darajasidagi o'zgarishlar ilmiy asosda yoritildi. Dastlabki holat tahlili. Tajriba-sinov ishlarining boshlang'ich bosqichida bo'lajak o'qituvchilarning milliy-ma'naviy qadriyatlar haqidagi bilimlari, ularga bo'lgan munosabati hamda amaliy faoliyatda namoyon bo'lish darajasi aniqlashtirildi. Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning aksariyatida milliy-ma'naviy qadriyatlarga oid nazariy tushunchalar mavjud bo'lsa-da, ularni kasbiy-pedagogik faoliyat bilan bog'lash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. So'rovnoma va suhbatlar natijalariga ko'ra, talabalar milliy an'ana va urf-odatlarining tarbiyaviy ahamiyatini e'tirof etgan holda, ularni dars jarayonida tizimli qo'llash bo'yicha metodik bilimlarga to'liq ega emasliklarini bildirganlar. Bu holat mazkur yo'nalishda maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratish zarurligini ko'rsatdi.

Tajriba guruhida ishlab chiqilgan pedagogik model asosida milliy-ma'naviy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan holda tashkil etilgan mashg'ulotlar, tarbiyaviy tadbirlar, interfaol metodlar va ijodiy faoliyat turlari joriy etildi. Xususan: milliy qadriyatlarga asoslangan dars ishlanmalari; muammoli vaziyatlar va peda-



gogik keyslar; milliy bayramlar va an'analar bilan bog'liq loyiha ishlari; mustaqil va reflektiv mashg'ulotlar tashkil etildi. Mazkur faoliyatlar jarayonida talabalar nafaqat bilim, balki qadriyatlarga yo'naltirilgan munosabat va amaliy ko'nikmalarni ham egallay boshladilar. Kuzatuv natijalari tajriba guruhidagi talabalarning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy mas'uliyati oshganligini ko'rsatdi. Nazorat guruhida esa ta'lim jarayoni an'anaviy shaklda olib borildi va milliy-ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirilgan maxsus metodlar tizimli ravishda qo'llanilmadi. Tajriba yakunida o'tkazilgan qayta diagnostika natijalari tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatdi. Tajriba guruhida: milliy-ma'naviy qadriyatlarga oid bilimlar chuqurlashdi; kasbiy faoliyatda qadriyatlardan foydalanish ko'nikmalari shakllandi; pedagogik vaziyatlarga milliy-ma'naviy yondashuv kuchaydi.

Talabalarning tayyorgarlik darajasi past, o'rtacha va yuqori mezonlar asosida baholanganda, tajriba guruhida yuqori darajaga ega bo'lgan talabalar ulushi sezilarli darajada oshdi, past darajadagilar esa kamaydi. Nazorat guruhida esa bunday dinamik o'zgarishlar kuzatilmadi. Statistik tahlil natijalari tajriba-sinov ishlarining samaradorligini tasdiqladi hamda ishlab chiqilgan pedagogik modelning amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki:

- bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlash jarayoni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi;
- milliy-ma'naviy qadriyatlarni pedagogik faoliyat bilan integratsiyalash o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshiradi;
- innovatsion va interfaol metodlar mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Mazkur natijalar tadqiqot gipotezasining to'g'riligini tasdiqlab, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida milliy-ma'naviy qadriyatlarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash zarurligini ilmiy asoslab berdi. Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar demokratik ta'lim tizimiga asoslangan bo'lib, unda ilgari surilayotgan g'oyalar quyidagilardan iborat:

- shaxsning ma'naviy madaniyatini hozirgi davrda insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida rivojlantirish lozim;
- ma'naviy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lishiga erishish zarur;
- ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda milliylikdan yiroq va unga zid unsurlarga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish lozim.

Ma'naviyat sohasidagi ishlarning pirovard maqsadi imon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat. Dunyo xalqlari ming yillar mobaynida o'z an'ana va urf-odatlarini, marosim va bayramlariga sodiq qolib, ularni turli ta'sir va tazyiqlardan himoya qilish orqali davrlar va ajdodlar o'rtasidagi ma'naviy yakdillikni ta'minlab kelgan hamda milliy o'zlik va mentalitetni saqlab qolganlar. Bu holat milliy qadriyatlar tushunchasining millat taqdiridagi hal qiluvchi ahamiyati bilan uzviy bog'liqdir. Shu o'rinda mavzuga doir tahlillar va misollarga o'tishdan oldin "qadriyatlar" va "milliy qadriyatlar" tushunchalariga izoh berish maqsadga muvofiqdir.

Qadriyatlar – borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti hamda moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalovchi tushunchadir. Milliy qadriyatlar esa millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlarni anglatadi. O'z milliy qadriyatlariga ega bo'lmagan millat yoki elat mavjud emas ^[1.123].

Milliy qadriyatlar tushunchasiga quyidagi tarifni keltirish mumkin: milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi ^[2.58]. Qadriyatlar bugungi yoshlar tarbiyasida nihoyatda muhim bo'lib, ularning mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, milliy-ma'naviy qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy boyligi bo'lib, u til, din, urf-odatlar, an'analar, axloqiy me'yorlar va madaniyat orqali namoyon bo'ladi hamda jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, ta'lim-tarbiya jarayoniga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlash jarayonida ularni to'g'ri fikrlashga yo'naltirish, ongini zararli va yot ta'sirlardan asrash eng muhim va hayotiy vazifalardan biridir. Chunki yoshlar – bizning farzandlarimiz, Vatan istiqboli va millat taqdiri aynan ularning kelajagida namoyon bo'ladi.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu jarayon o'qituvchilarning kasbiy yetukligi, ma'naviy barkamolligi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagogik ta'lim muassasalarida milliy-ma'naviy tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, milliy qadriyatlarga sodiq, yuksak ma'naviyatli o'qituvchi jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini ta'minlaydi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida milliy-ma'naviy tarbiyaga tizimli, uzluksiz va ilmiy asoslangan yondashuv zarur. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlash zamonaviy pedagogik ta'lim tizimining muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon o'qituvchi shaxsini faqat kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish bilangina cheklanmay, balki uning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi, milliy o'zligini anglash, vatanparvarlik tuyg'usi hamda ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlangan o'qituvchi yosh avlod tarbiyasida namuna bo'la oladigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bunday pedagog o'z faoliyatida halollik, adolat, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni uyg'un holda qo'llay oladi. Natijada ta'lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki tarbiyaviy va ma'naviy rivojlanishga yo'naltirilgan tizimli jarayon sifatida takomillashadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida milliy-ma'naviy qadriyatlardan samarali foydalanish ularning pedagogik madaniyati, kasbiy etikasi va ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, pedagogik fanlar mazmuniga milliy meros, Sharq allomalari g'oyalari, tarixiy va madaniy qadriyatlarni integratsiya qilish ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida milliy-ma'naviy tarbiyani amalga oshirish uzluksizlik, tizimlilik va amaliy yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Mazkur yondashuv pedagoglarni zamonaviy ta'lim talablariga mos, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol va ma'naviy yetuk mutaxassislar sifatida shakllantirishga imkon yaratadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tayyorlangan bo'lajak o'qituvchi – bu nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki jamiyatning ma'naviy taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga mas'ul bo'lgan yetuk shaxsdir. Shu sababli pedagogik ta'lim tizimida milliy-ma'naviy qadriyatlarga asoslangan yondashuvni yanada takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xayrullayev M., Nazarov Q. va boshqalar. Falsafa. Darslik. – Toshkent: Sharq, 2010-yil. – 123-124-betlar.
2. Erkayev A. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – 58-59-betlar.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
6. Xaydarov F. Ma'naviy tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.